

## OLIV TA'LIMNING TALABALAR HAYOTIGA TA'SIRI VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Ro'zmetova Munisa Ma'ruf qizi**

Kafedra o'qituvchisi, **Allayarov Doniyor Islom o'g'li**

Nukus Davlat pedagogika instituti,

Umumiy pedagogika va psixologiya kafedراسي.

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Oliy ta'lim talabalar hayotiga ta'sirlari, talabalik hissi va talaba ro'liga kirgan yoshlarning psixologik xususiyatlari shuningdek, talabalarda o'z-o'zini tarbiyalash, boshqarish mexanizmlari, talaba shaxsini shakllantirishda, o'z-o'zini takomillashtirishning ahamiyati xususida so'z yuritildi.*

***Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim, nazariya, rivojlanish, psixologiya, tarbiya, inson, talaba, shaxs, ideal, Men o'brazi.*

## ВЛИЯНИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ЖИЗНЬ СТУДЕНТОВ

***Абстрактный.** В данной статье рассматривается влияние высшего образования на жизнь студентов, ощущение студенчества и психологические особенности молодых людей, вступивших в роль студента, а также значение механизмов самообразования и управления в студентах, а также значение самосовершенствования в формировании личности студента.*

***Ключевые слова:** Высшее образование, теория, развитие, психология, образование, человек, студент, личность, идеал, самооценка.*

## IMPACT AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF HIGHER EDUCATION ON THE LIFE OF STUDENTS

***Abstract.** In this article, the effects of higher education on the life of students, the feeling of being a student and the psychological characteristics of young people who have entered the role of a student, as well as the importance of self-education and management mechanisms in students, and the importance of self-improvement in the formation of a student's personality. was discussed.*

***Key word:** Higher education, theory, development, psychology, education, person, student, personality, ideal, self-image.*

O'zbekiston Respublikasida barkamol, har tomonlama yetuk insonni tarbiyalashda oliy o'quv muassasalarining ro'li katta. Shuning uchun barcha ta'lim muassasalarining moddiy - texnik bazasini, professor - o'qituvchilar tarkibini, mutaxassislar tayyorlash stururasini va o'quv - metodik adabiyotlarni yangilashga qaratilgan islohatlar olib borilmoqda.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda jahon mamlakatlarning ilg'or g'oyalari, tarbiyaviy, ta'limiy nazariyalari, mutaxassislar tayyorlashning boy amaliyoti, hozirgi zamon texnikasi va texnologiyasidan foydalanish hamda milliy, hududiy xususiyatlarini hisobga olib, ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, shu asosida yangisini ishlab chiqish, ularni keng ko'lamda qo'llash bosh omil sanaladi. Oliy o'quv yurtlarimiz zamonaviy texnika va sharqona tarbiya bilan boshqa mamlakatlardan ajralib turishi lozim. Ularda milliy ruh hukmronlik qilishi kerak. Demak, bugungi yoshlar har tomonlama rivojlangan o'ziga, boshqa insonlarga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o'z to'g'ri munosabatini bildira oladigan, ijodkor va tadbirkor bo'lmog'i lozim.

Talabalik yillarida yoshlarning hayoti va faoliyatida o'zini o'zi kamolotga yetkazish jarayoni muhim ro'l o'ynaydi, lekin o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari (o'zini o'zi tahlil qilish, nazorat etish, bohola, tekshirish va boshqalar) ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ideal (yuksak, barqaror, barkamol) "Men"ni real (aniq voqea) "Men" bilan taqqoslash orqali o'zini o'zi boshqarishning tarkibiy qismlari amaliy ifodaga ega bo'ladi. Talabani nuqtai nazaricha, ideal "Men" ham muayyan mezon asosida yetarli darajada tekshirib ko'rilmagan, shuning uchun ular goho tasodifiy, g'ayritabiiy his etishi muqarar, binobarin, real "Men" ham shaxsining takamillashuvida bunday obyektiv qarama-qarshiliklar o'z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonchsizlikni, o'qishga nisbatan salbiy munosabatni vujudga keltiradi. Jumladan, o'quv yili boshida talabada ko'tarinki kayfiyat, oliy o'quv yurtiga kirganidan zavq-shavq to'yg'usi kuzatilsa, ta'limning shart - sharoiti, mazmuni, mohiyati, kun tartibi, muayyan qonun va qoidalar bilan yaqindan tanishish natijasida uning ruhiyatida keskin tushkunlik ro'y beradi. Yuqorida aytilgan ichki va tashki vositalar, omillar ta'siri oqibatida uning ruhiy dunyosida umudsizlik, ruhiy parokandalik kayfiyati, ya'ni istiqbolga ishonchsizlik, ikkinchisi hadiksirash kabi salbiy his tuyg'ular namoyon bo'ladi. Oliy ta'limda tarbiya ishlarini rejalashtirishda, ta'lim jarayonida talabaga o'ziga xos munosabatda bo'lish mazkur davrning muhim sharoitlaridan biridir. Yuqorida aytilganlardan qat'iy nazar, yigit va qizlar oliy o'quv yurtiga qabul qilish ularda o'z kuchlari, qobiliyatlari, aql zakovatlari, ichki imkoniyatlari va irodalariga qat'iy ishonch bildiradi. Ana shu ishonch o'z navbatida to'laqonli hayot va faoliyatni uyushtirishga umid his-tuyg'usini vujudga keltiradi.

Yosh davri taraqqiyotida talabalik davri o'zining universalligi bilan ajralib turadi. Talabalik davri o'tish bosqichi ya'ni bolalikdan mustaqil yetuklik hayotiga o'tish davri hisoblanadi. Biroq talabalik mutlaqo mustaqil hayot bosqichi bo'lib shaxs qadriyatlarini tizimiga egadir. Talabalik davrining yuqori chegarasi esa tarixiy va ijtimoiy jihatdan shartlashgan bo'lib, individual o'zgaruvchidir. Yosh davri chegaralarini aniqlash nima uchun murakkab. "Ulg'ayish" tushunchasining o'zi serqirradir. Biologik ulg'ayish jinsiy yetuklik, nasl qoldirish qobiliyati bilan belgilanadi; Ijtimoiy ulg'ayish esa iqtisodiy mustaqillik, katta odam ro'lini qabul qilinishi, psixologik ulg'ayish yetuk shaxs identifikatsiyasidir. Insoniyat jamiyatida ulg'ayish madaniyati bilimlar tizimi, qadriyatlar, me'yorlar, ijtimoiy an'analar, mehnatga tayyorgarlik mezonlar bilan belgilanadi.

Talabalik ontogenetik taraqqiyotning muhim davri hisoblanib, u turli yo'nalish mualliflari tomonidan turlicha talqin qilinadi. Xususan:

Biogenetik nazariyada asosiy e'tibor biologik taraqqiyotga qaratilgan bo'lib, talabalik davri eng avvalo organizmning jismonan o'sishi bilan belgilanadi.

Psixanalitik nazariyada (Z.Freyd, A.Freyd) esa talabalik davrida psixoseksual taraqqiyot muayyan bosqichga yetib libidoning instinktiv energiyasi "Men"ning himoya mexanizmlari bilan kompensatsiyalashadi deb hisoblanadi. "U" va "Men" orasidagi qarama-qarshi kurash ulg'ayish va nizoli vaziyatlarning ortishida kuzatiladi, natijada "U" va "Men" orasida yangicha uyg'unlik namoyon bo'ladi. Psixozanalizga qarshi E.Shpranger talabalik davrida individning madaniy o'sishi kuzatiladi, deb hisoblagan. E.Eriksonning psixosotsial nazariyasida esa ilk o'spirinlik va talabalik davrida asosiy e'tibor identifikatsiyaga erishishga, ko'pgina tanlovlar orasidan o'zi uchun yangi o'braz yarata olishiga qaratilishi darkor deb hisoblaydi. [Goziyev E. Umumiy psixologiya kursining «Shaxs» bo'limi. (ma'ruzalar matni). T.1999 y. 28-37 b.]

Ijtimoiy nazariyaga ko'ra, talabalik davri ijtimoiylashuvning muhim bosqichi hisoblanib, jamiyat tomonidan ma'qullangan me'yorlarni o'zlashtirilishi tushuniladi.

Psixologik nazariyada esa o'sayotgan individning ichki olami va o'zini o'zi anglashi bilan tavsiflanuvchi sub'ektiv tomoniga va uning ulg'ayishidagi shaxslararo munosabatlarining o'rniga asosiy e'tibor beriladi. Ulg'ayishga individual yondashuv turli tartibda taraqqiyot vazifalarini keltirib chiqaradi. Eng avvalo bu talabalik davri bilan bog'liq. O'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, talabalik davrida guruhdagi o'zaro munosabatlar bilan shaxs xususiyatlari o'rtasida ko'p qirrali aloqalar mavjud bo'ladi. Jamoada tarkib topgan o'zaro munosabatlar jamoa a'zolarining qadriyatlarini, ahloq no'rmalari va manfaatlari bilan belgilanadigan alohida emotsional psixologik ko'rinishga ega bo'ladi. Jamoaning shaxsga ta'siri singari har bir shaxs faolligi

darajasi, shaxs ushbu jamoada hissiy zo'riqishni qanchalik boshdan kechirishi bilan belgilanadi. Demak, har bir shaxs kamolotining va butun jamoaning yuksak ishchanlik qobiliyatini rag'batlantiruvchi psixologik muhitni tashkil etishni guruh a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni va unda hukmron bo'lgan qadriyatlarni tartibga solishdan boshlash kerak. Shaxslararo munosabatlar jamoa har bir a'zosiga ijobiy ta'sir ko'rsatib qolmay, shu bilan birga faoliyat unumdorligini oshirishning muhim omili hamdir. Lekin shu bilan bir qatorda jamoa a'zolari o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda nizoli vaziyatlar ham yuzaga kelishi mumkin. Qarama-qarshiliklar, konfliktlar, inqirozlar inson tomonidan boshdan kechirilgan ekan, shaxs rivojlanishi manbai bo'lib hisoblanadi hamda uning konstruktiv yoki destruktiv hayotiy ssenariysini belgilaydi.

Demak oliy ta'limda taxsil olish, bu davrdagi shaxslararo munosabatlar yosh davrlari vazifalarini hal etish shaxs taraqqiyotidagi ko'pgina muammolarni yechimiga imkon yaratadi.

Talabalar deganda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotda va mutaxassislikka oid ro'llarni muayyan qoida va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoiy guruh tushuniladi. Oliy o'quv yurtidagi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari talabalarning boshqa ijtimoiy guruhlar bilan (ular xoh rasmiy, xoh norasmiy bo'lishidan qat'iy nazar) muloqotga kirishishi uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy yetuklikning jadal sur'atlar bilan ro'yobga chiqishidir. Ma'lumki, ijtimoiy yetuklik (kamolot) shaxsdan zarur aqliy qobiliyatlarni hamda ijtimoiy turmushda bajariladigan turli ro'llarni egallashga (oila qurishga), farzandlarni tarbiyalashga, foydali mehnatda qatnashishga (ma'sul vazifada ishlashga) tayyorlanishni talab qiladi. Mazkur jarayonning bosh mezonlari va ko'rsatgichlari o'rta ma'lumotlilik, jamoatchilik topshiriqlari, mehnatda faollik ko'rsatish, qonunlar oldida javobgarlik, mutaxassis bo'lish imkoniyati, unga intilish tuyg'usi, irodaviy zo'r berish, yosh otalik va onalik burchi, jamoat arbobi vazifasini o'tash, ijtimoiy guruhga rahbarlik qilish, sport bilan shug'ullanish va hokozolardan iborat.

Talaba oliy o'quv yurtida turli fanlarni o'rganish natijasida unda kasbiy yo'nalganlik shakllanadi, ya'ni o'z bilim, tajriba va qobiliyatini tanlagan kasbiy sohasida qo'llash uchun shaxsiy intilish paydo bo'ladi. Shaxsning kasbiy yo'nalganligini takomillashtirish istagi, o'z kasbi sohasida mehnat qilib, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish istagini o'z ichiga oladi. Kasbiy yo'nalganlik - kasbiy faoliyat maqsad va vazifalarini tushunishni va qabul qilishni o'z ichiga oladi. Kasbiy yo'nalganlik mazmunidagi ijobiy o'zgarishlar bo'lg'usi kasb bilan bog'liq bo'lib, motivlar mustahkamlanishida ko'rinadi: ish bo'yicha o'z majburiyatlarini yaxshi

bajarishga intilish, bilimdon mutaxassis sifatida o'zini ko'rsatish, murakkab o'quv vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga intilish kuchayadi, ishda muvaffaqiyatga erishish istagi kuchayadi.

Psixologlardan B.G.Ananyev, N.V. kuzmina, N.F.Talizina, V.Y.Lyaudis, I.S.Kon, V.T.Lisovskiy, A.A.Badalev, A.A.Petrovskiy, Z.F.Yesareva. M.G.Davletshin, I.I.Ilyasov, A.V.Diitriyeva, A.A.Verblskiy, V.A.Tokyareva va boshqalarning tadqiqotlariga ko'ra, oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish talabalar uchun juda og'ir kechadi, chunki, bu davrda shaxsning murakkab fazilatlari, xislatlari, sifatleri takomillashish bosqichida bo'ladi. Mazkur yosh davridagi ijtimoiy psixologik o'sishning xususiyatlaridan biri o'qish faoliyatining ongli motivlari kuchayishidir. Talabalarda axloqiy jarayonlarning o'sishi sust amalga oshsa – da, lekin xulqining eng muhim sifatleri – mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik va hakovolar takomillashib boradi. [ Goziev E. Oliy maktab psixologiyasi. T.1997.] Shuningdek, ularda ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni amalga oshirishga intilish toboro kuchayadi. Psixologlarimizning tadqiqotlari shaxs hayot tajribasini egallashda unda o'zligini anglash vujudga kelishini ko'rsatadi. Shaxsiy hayotning mazmunini anglash, aniq turmush rejalarini tuzish, kelajak hayot yo'lini belgilash shular jumlasidandir. Talaba asta – sekin mikroguruhlarining notanish sharoitlariga ko'nikib boradi, o'zining haq – huquqlari va majburiyatlarini bila boshlaydi, shaxslararo munosabatlarning yangicha ko'rinishini o'rnatadi, turmushdagi ijtimoiy ro'llarni amalda shaxsan sinab ko'rishga intiladi. Ulardagi romantik his – tuyg'ular voqelikka muayyan yondoshishga birmuncha halaqit beradi. Chunki ular turmushdagi yutuqlar va muvaffaqiyatlarning ijtimoiy-psixologik ildizlari nimadan ekanligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmaydilar.

Yosh fizologiyasi va psixologiyasi fanlarida to'plangan materiallar taxlilidan ko'rinadiki, talaba 17-19 yoshda ham o'z xulqi va bilim qobiliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmaydi va shunga ko'ra xulq motivlarining asoslanmagani, uzoqni ko'ra olmaslik, ehtiyotsizlik kabi hollar ro'y beradi.

V.T.Lisovskiyning fikricha 19-20 yoshlarda ayrim salbiy hatti - harakatlar ko'zga tashlanadi. Mazkur yoshda xohish va intilishning rivojlanishi iroda va xarakterdan ancha ilgarilab ketadi. Bunda odamning hayotiy tajribasi alohida ro'l o'ynaydi, chunki talaba shu tajriba yetishmasligi natijasida nazariya bilan amaliyotni, fantaziya bilan reallikni, romantika bilan ekzotikani, haqiqat bilan illyuziyani, orzu bilan xohishni, optimizm bilan qat'iylikni aralashtirib yuboradi.

[ Davletshin M.G, Do'smuhamedova Sh. va boshq, Yosh davrlari va pedagogik psixologiya,. —Toshkent, 2007]

Odatda talabalar II va III kurslarda oliy o'quv yurti va mutaxassislikni nima uchun tanlagani haqida yana jiddiy o'ylaydilar. Mazkur yosh davrida o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari, ijodiy tafakkur, muayyan hayotiy tajribada o'zlashtirilgan bilimlarni tartibga solish asosida his tuyg'ular, qarashlar, axloqiy qadriyatlar, o'zligini anglash va barqaror e'tiqod shakllanadi. Talaba xukm va xulosa chiqarar. O'z hatti – harakatida qat'iy turib, ularni himoya qiladi, hayotning turli sohalari bo'yicha har xil darajadagi ko'nikma va malakalarga nazariy bilimlar ijtimoiy – psixologik tushunchalarni amaliy faoliyatga tadbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Oliy ta'lim yoshlar hayotida tubdan o'zgarishlar paydo qiladigan maskandir. Talabalar o'z mutaxassisligi va hayotiy bilimlarga ega bo'lgan holda tajribali shaxs bo'lib kamol topadi. Shuningdek, talabalar ilmiy va hayotiy dunyoqarashli, pedagogik va psixologik bilimlarga ega kadr holida tayyorlanadi. Talabalarda tafakkurning rivojlanishida, ilmiy dunyoqarashning shakllanishida umumta'lim va ijtimoiy fanlar, jumladan tarix, falsafa, mantiq, iqtisodiy nazariya asoslari, madaniyatshunoslik, adabiyot, etika, estetika, pedagogik, psixologiya kabi o'quv predmetlari muhim ro'l o'ynaydi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim yurtlarida ta'lim sohasini yangi bosqichiga ko'tarish, talaba yoshlarning qalbi va ongiga Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini singdirish, ularni bizga begona bo'lgan ta'siridan himoyalash, shu ruhda tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Yangicha dunyoqarashga ega, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimizning yanada ravnaq topishi uchun munosib hissa qo'shishga intiladigan, yetuk minglab yangi avlod mutaxassislari tayyorlanmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davletshin M.G, Do'smuhamedova Sh. va boshq, Yosh davrlari va pedagogik psixologiya,. —Toshkent, 2007
2. Xaydarov F.I. Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. —Toshkent, 2009y
3. Goziev E. Psixologiya. T.1994.
4. Goziev E. Oliy maktab psixologiyasi. T.1997.
5. Goziev E. Umumiy psixologiya kursining «Shaxs» bo'limi. (ma'ruzalar matni). T.1999 y. 28-37 b.
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
7. [www.psychology.com](http://www.psychology.com)
8. [www.aim.uz](http://www.aim.uz)